

## "Xalqaro nogironlar kuni"da

1992-yil 14-oktyabrdan Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 47/3-sonli qaroriga asosan 3-dekabr Xalqaro nogironlar kuni sifatida e'lon qilindi va tashkilotga a'zo davlatlarni har yili maxsus kun sharafiga bag'ishlangan tadbirlarni o'tkazishga chaqirdi. Shu munosabat bilan 2 - Talabalar turar joyiga Qirg'izistondan Teshaboyev Abduraufshox tashrif buyurib "Hayotga intilib" mavzusida davra suhbati bo'lib o'tdi. Abduraufshox shukronalik haqida gapirib talabalarni ko'proq oqishga oz ustida ishlashga chorladi. Abduraufshox o'zi bastalagan qo'shiqlardan kuylab berdi. Talabalar tomonidan berilgan savollarga javob berdi. QSXET, GTS fakulteti talabalari qatnashishdi .



**Tarbiyachi-pedagog, psixolog Dilorom Sagdullayeva axboroti**

**Institut matbuot xizmati rahbari Raximboy Jumaniyozov**